



# “TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

## ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo‘nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta‘lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e‘lon qilinadi.



**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY  
JURNALI**

**Bosh muharrir:**  
Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**  
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

**Dizayner:**  
Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba  
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi  
№ 066379- raqamli guvohnomasi  
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri  
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:  
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8  
"Times New Roman" garnitiruasi.  
Ofset bosma.  
Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i: 11.  
Adadi 10 nusxa.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan  
<https://scientific.tues.uz>  
web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**  
Surxondaryo viloyati,  
Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi.

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. eshbolta\_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. navruza\_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. nurillo\_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. muxiddin\_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy  
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,  
Termiz, O'zbekiston. oltiboy\_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. maqsuda\_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena\_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv\_urolova@tues.uz

# MUNDARIJA

## **G. E. TURAYEVA**

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

## **G.T. JUMAYEVA**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

## **O.Ch.XOLOV**

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

## **N.M. SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

## **B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV**

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

## **M.Y.MADIEVA**

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

## **S.Q. ESHBOYEVA**

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

## **N.N. SHODIYEVA**

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

## **K.Sh.OLTIBOYEVA**

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

## **U.A. TASHBAYEVA**

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

## **M.Y.MADIEVA**

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

## **R.D. NORQOBILOVA**

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

## **G'.A. MAMARAJABOV**

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

## **F.A. ABDURAZZOQOV**

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

## **A.Ch. QOSIMOV**

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

## **M.X. FAYZULLAYEVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

## **S.A. JABBOROVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

## **F. YORMATOV**

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari .....70

## **R. R. KHAMRAEVA**

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

## **I.H. JUMAYEV**

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

## **N.A. UMAROVA**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

## **I.B. QARSHIYEVA**

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89



Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti  
tarix fanlari doktori (DSc)  
**Fayzullayeva Mavlyuda Xamzayevna**  
E-mail: mavlyuda\_fayzullayeva@tues.uz

## TARIXIY YOZMA MANBALAR VA ILMIY ADABIYOTLAR QIMMATLI MANBA SIFATIDA

### ANNOTATSIYA

XIX asrning soʻnggi choragi XX asr boshlariga kelib Oʻzbekiston, xususan, Surxon vohasi iqtisodida ham maʼlum oʻzgarishlar yuz bergan. Bu davrda oʻzbek xalqining nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida, balki moddiy madaniyatida, xususan, milliy taomlarida ham juda katta oʻzgarishlar sodir boʻlgan boʻlib, milliy taomlar tarkibiga koʻplab inoetnik taomlar kirib kelgan. Moddiy madaniyatning bir boʻlagi hisoblangan Surxon vohasi anʼanaviy taomlarining etnohududiy xususiyatlarini oʻrganish orqali ham milliy taomlar tarixi, ularning tarkibi, transformatsiyalashuvi, taomlardagi etnik va inoetnik xususiyatlar, ular bilan bogʻliq urf-odat va marosimlar, shuningdek, aholi turmush tarzi bilan bogʻliq anʼanalar va xalq xoʻjaligida sodir boʻlgan oʻzgarishlar taʼsirini tahlil qilish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu oʻrinda tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlarni oʻrganish muhimdir.

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus tadqiqotchilarining Buxoro amirligi iqtisodi, aholisining etnik tarkibi va siyosiy hayoti hamda Turkiston tarixi va etnografiyasiga bagʻishlangan ekspeditsiyalarida toʻplagan maʼlumotlari qimmatli manba sifatida xizmat qilishi haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar.** Buxoro amirligi, Surxon vohasi, Rossiya hukumati, rus tadqiqotchilari, yozma manbalar, ilmiy adabiyotlar, moddiy madaniyat, milliy taomlar, xalq xoʻjaligi, oʻzgarishlar, oʻziga xoslik, etnografiya.

### АННОТАЦИЯ

Во второй половине XIX века и к началу XX столетия в экономике Узбекистана, в частности Сурхандарьинского оазиса, произошли существенные изменения. Данный период характеризуется не только экономическими и социально-политическими преобразованиями в жизни узбекского народа, но и значительными сдвигами в сфере материальной культуры. Особенно заметными стали изменения в национальной кухне, в состав которой начали проникать многочисленные иноэтнические блюда, что свидетельствует о культурных контактах и взаимовлиянии народов региона.

Изучение этнорегиональных особенностей традиционных блюд Сурхандарьинского оазиса, являющихся неотъемлемой частью материальной культуры, имеет важное научное значение. Анализ этих особенностей позволяет проследить историческое развитие национальных блюд, их состав и трансформацию, выявить этнические и иноэтнические элементы, а также связанные с ними обычаи и ритуалы. Кроме того, подобные исследования дают возможность определить влияние социально-экономических изменений и хозяйственной деятельности населения на формирование и эволюцию гастрономических традиций региона.

Особое значение в данном контексте приобретает изучение исторических письменных источников и научной литературы. В частности, материалы, собранные русскими исследователями в конце XIX – начале XX века в ходе экспедиций, посвящённых экономике Бухарского эмирата, этническому составу населения, политической жизни, а также истории и этнографии Туркестана, представляют собой ценные источники по изучению указанных процессов. Эти данные позволяют комплексно рассмотреть изменения в хозяйственной, культурной и повседневной жизни населения Сурхандарьинского оазиса в рассматриваемый период.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Сурхандарьинский оазис, правительство Российской империи, русские исследователи, письменные источники, научная литература, материальная культура, национальные блюда, народное хозяйство, изменения, самобытность, этнография.

### ABSTRACT

In the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, significant changes occurred in the economy of Uzbekistan, particularly in the Surkhandarya Oasis. This period was characterized not only by economic and socio-political transformations in the life of the Uzbek people,

but also by considerable shifts in the sphere of material culture. Notably, changes became visible in the national cuisine, which began to incorporate numerous foreign dishes, reflecting the cultural interactions and mutual influences among the peoples of the region.

The study of ethnoregional features of traditional dishes of the Surkhandarya Oasis, which constitute an integral part of material culture, holds important scientific significance. The analysis of these features makes it possible to trace the historical development of national dishes, their composition and transformation, to identify ethnic and foreign elements, as well as the customs and rituals associated with them. Moreover, such studies help determine the impact of socio-economic changes and the population's economic activities on the formation and evolution of the region's gastronomic traditions. Of particular importance in this context is the study of historical written sources and scholarly literature. In particular, materials collected by Russian researchers in the late 19th and early 20th centuries during expeditions devoted to the economy of the Bukhara Emirate, the ethnic composition of the population, political life, as well as the history and ethnography of Turkestan, represent valuable sources for studying these processes. These data make it possible to comprehensively examine the changes in the economic, cultural, and everyday life of the population of the Surkhandarya Oasis during the period under consideration.

**Keywords:** Bukhara Emirate, Surkhandarya Oasis, Russian Empire government, Russian researchers, written sources, scholarly literature, material culture, national cuisine, national economy, transformations, identity, ethnography.

**Kirish.** Surxon vohasi O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy-etnografik viloyatlaridan biri bo'lib, tabiiy-geografik sharoiti, iqlimi, aholisining etnik tarkibi kabi jihatlarga ko'ra alohida ajralib turadi.

Surxon vohasi aholisi qadimdan turli xo'jalik-madaniy tipiga, ya'ni tekislik va dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq-dehqonlar hamda tog' va cho'l zonalaridagi yarim ko'chmanchi-chorvadorlarga bo'lingan.

Umuman olganda o'zbek xalqining nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida, balki moddiy madaniyatida, xususan, milliy taomlarida ham juda katta o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lib, milliy taomlar tarkibiga ko'plab inoetnik taomlar kirib kelgan. Surxon vohasi an'anaviy taomlarining etnohududiy xususiyatlarini o'rganish orqali milliy taomlar tarixi, ularning tarkibi, transformatsiyalashuvi, taomlardagi etnik va inoetnik xususiyatlar, marosimiy taomlar, ular bilan bog'liq urf-odat va marosimlar, shuningdek, aholi turmush tarzi bilan bog'liq an'analar va ularga xalq xo'jaligida sodir bo'lgan o'zgarishlar ta'sirini tahlil qilish muhimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mintaqaga turli maqsadlarda kelgan rossiyalik sayyohlar, harbiy zobitlar, idora vakillari tomonidan yozilgan asarlarda Surxon vohasi aholisining an'anaviy taomlari, urf-odat va marosimlari haqida ma'lumotlar uchraydi. XIX asr oxirida XX asr boshlarida rus tadqiqotchilaridan N.V. Xanikov, P.I. Nebolsin, N.A. Mayev, N.A. Fridrix, D.N. Logofet, Ye.M. Peshereva, B.X. Karmisheva, N.A. Kislya-kov, N.P. Lobacheva,

S.A. Tokarev, O.A. Suxareva, K.L. Zadixina, G.P. Snesev, N.G. Boroznalar o'z asarlarida Surxon vohasining Surxon vohasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti moddiy madaniyati xususan, voha taomlari, ularning tayyorlanishi va iste'mol qilish tartiblari, aholining hayot tarzi, xo'jalik mashg'ulotlari ko'rsatib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahondagi barcha xalqlar va elatlar ancha murakkab etnik jarayonlarni boshdan kechirganlar. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr mobaynida turli elatlar bilan aloqada, ba'zan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o'ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida shakllanib borganligini tadqiqotlardan bilamiz. Etnologiyaning eng muhim usullaridan biri yozma manbalar ilmiy adabiyotlarni o'rganish bo'lib, uning qimmatini o'rganilayotgan xalq va uning madaniyati to'g'risida aniq va to'laqonli ma'lumotlarni berish bilan ajralib turadi.

**Tahlil va natijalar.** XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Surxon vohasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlarning yuz berishi vohada yashovchi turli etnik va etnografik guruhlarining taomlari, turlari va ular bilan bog'liq marosim hamda an'analarda o'ziga xoslik saqlanib qolganligini ko'rsatadi.

XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr mobaynida Surxon vohasi ma'muriy va siyosiy jihatdan Buxoro amirligi qaramog'ida bo'lgan. U dastlab 1927 yilda O'zbekiston Respublikasi tarkibida tuzilgan viloyatlarning biri bo'lib, tez orada Buxoro viloyati tarkibidagi Surxondaryo



okrugiga aylantirilgan. Faqat 1941 yilning 6 mart kuni O'zbekiston oliy kengashining qarori bilan Surxondaryo mustaqil viloyat tarzida qayta tuzilgan[1].

XX asr boshlarida Sherobod bug'doy va arpa yetishtirishda boshqa beklklarga nisbatan oldinda turgan bo'lib, bir mavsumda 40 mingdan 70 ming botmongacha (XIX asrda Buxoroda bir botmon 8 pudga, ya'ni 131,044 kg.ga teng bo'lgan) bug'doy va arpa hosili olgan[2].

XIX asrning so'nggi choragi XX asr boshlariga kelib voha iqtisodida ma'lum o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, Rossiya hukumati Buxoroni o'ziga bo'ysundirgandan keyin qishloq xo'jaligida asosiy ekin turiga aylana boshlagan paxta maydonlarining kengayib borishi an'anaviy dehqonchilik mahsulotlarining kamayishiga olib kelgan. Qayd etish kerakki, bu davr garchi qisqa bo'lsada, lekin o'zining murakkabligi va ziddiyatliliigi bilan ajralib turadi. Mustamlakachilik zulmi ostida yashagan o'lka xalqlari hayotida madaniy va ma'naviy yo'qotishlar yuzaga keldi. Bu tuzumning asosiy maqsadi o'z mustamlakasini doimiy saqlab qolish va uni xom ashyo bazasi, mahsulot bozoriga aylantirishga intilish edi. Buning oqibatida esa xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlandi.

1920 yillarda Buxoro amirligi qulagandan keyin, "Hamma narsa qizil armiya uchun" degan shiorga amal qilinib, bu "shior" oziq-ovqat razvyorstkasi asosida, shafqatsiz tortib olish, musodara qilish usuli bilan amalga oshirildi. Birgina 1921 yil faqat Sharqiy Buxoroning o'zida aholidan oziq-ovqat razvyorstkasi tarzida 1.5 mln. puddan ziyod g'alla tortib olindi[3]. Buning natijasida dehqon xo'jaliklari xonavayron bo'lib, agrar tarmoqdagi ishlab chiqarish darajasi 1922 yilda 1918 yilga nisbatan dehqonchilikda 40 % tushib qoldi va ekin maydonlari deyarli ikki baravar qisqardi[4].

O'zbekiston bo'yicha 1925 - 1927 yillarda "pomeshchik tipi" dagi 1492 ta xo'jalik tugatildi. 27992 ta xo'jalikning yeri tortib olindi yoki qisqartirildi[4]. 1928 yildan boshlab kolxozlarni jadal suratlar bilan tashkil etish siyosati o'tkazila boshlandi. Masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm okruglarida islohot jarayonida yerga ega bo'lgan 4382 ta xo'jalikdan 1125 tasi majburiy ravishda qishloq xo'jalik artellariga birlashtirildi[3].

1937 yil dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish darajasi 95 % ga yetgan bo'lsa, 1939 yilda bu ko'rsatkich 99.2 % tashkil etdi[5]. Jamoalashtirish qishloq xo'jaligiga juda og'ir zarar bo'lib tushdi. Respublikada ocharchilik boshlandi. G'alla

yetishtirish keskin qisqardi. Chorvachilikka haddan tashqari ziyon yetdi[3].

40-yillarga kelib, butun mamlakatda bo'lgani kabi Surxon vohasida ham oziq-ovqat keskin kamayib ketdi. Shunday bo'lsada, urush yillari mobaynida dehqonlar davlatga g'alla, sholi, meva, quritilgan meva, go'sht va boshqa ko'pgina mahsulotlar yetkazib berdilar. Bu qishloq mehnatkashlarining o'zi yemay-ichmay, dushmani tor-mor qilish uchun umumxalq kurashiga qo'shgan munosib hissasi edi.

Surxon vohasining o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari qadimdan ixtisoslashgan ikki xo'jalik madaniy muhit - sersuv buloq, daryo va uning irmoqlari bo'yida sug'orma dehqonchilik va shuningdek, yarim dasht va tog' yonbag'irlarida chorvachilikni baravar rivojlanishiga imkon berdi[6]. Surxon vohasi aholisi taomlarida ham donli, sutli va go'shtli mahsulotlar muhim o'rin tutib, go'sht mahsulotlarini ko'proq chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tog' va tog' oldi hududlari aholisi nisbatan ko'proq iste'mol qilgan. Keyinchalik taom tayyorlash, iste'mol qilishda sabzavot va mevalardan ham foydalana boshlandi. Demak, XX asrning birinchi yarmida Surxon vohasi taomlari, ularning tayyorlanishi va iste'mol qilish tartiblari ko'proq aholining hayot tarzi, xo'jalik mashg'ulotlariga bog'liq bo'lgan. Chorvachilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar ovqatlanish rasionida sut mahsulotlari (asosan qo'y-echki suti), nisbatan ko'proq go'sht va kamroq sabzavotlardan foydalanishgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarda ham sut mahsulotlari muhim o'rin tutgan (asosan sigir suti) bo'lsada, asosan sabzavotlar, poliz mahsulotlari (qovun, tarvuz, qovoq) va mevalar iste'mol qilishgan. Donli mahsulotlardan tayyorlangan un va yormalardan ham chorvadorlar, ham dehqonlar birday foydalanishganki, bu xo'jaliklarning iqtisodi bir-biriga bog'liq bo'lib, aynan shu mahsulotlar aholi iste'molida ko'proq bo'lgan. Bundan tashqari, dehqon xo'jaliklar bilan yarimo'troq xo'jaliklar aralashuvi natijasida ularning taomlaridagi farqlar ham yo'qolib borgan. Bu jarayonlar aholi iste'molidagi taomlar tarkibi va tayyorlanishida ham o'zgarishlarga olib keldi.

Surxon vohasi taomlari, ularning tayyorlanishi va iste'mol qilish tartiblari tarixini to'laqonli o'rganishda tarixiy yozma manbalar, arxiv hujjatlari, tarixiy-ilmiy adabiyotlar, arxeologik topilmalar va etnografik dala ma'lumotlari qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, mintaqaga turli maqsadlarda kelgan rossiyalik sayyohlar, harbiy zobitlar, idora vakillari tomonidan yozilgan asarlarda Surxon vohasi aholisining an'anaviy taomlari, urf-odat va marosimlari haqida ma'lumotlar uchraydi. XIX asr oxirida rus tadqiqotchilaridan N.V. Xanikov va P.I. Nebolsinlar Buxoro amirligi iqtisodi, aholisining etnik tarkibi va siyosiy hayoti bilan qiziqishib, o'z asarlarida amirlik hududida yetishtirilgan meva va sabzavot turlari hamda ulardan tayyorlanadigan taomlar, aholining choy ichish tartibi, xususan, shirchoy va mintaqaga xos ayrim go'shtli taomlarga ham e'tibor qaratishgan[7].

XIX asr oxirlariga kelib Turkiston tarixi va etnografiyasiga oid ma'lumotlar to'plana boshlandi. Jumladan, N.A. Mayev boshchiligidagi Sharqiy Buxoroga uyushtirilgan ekspeditsiyalarda Hisor, Sherobod va Boysun beklilari aholisining turmush tarziga doir yig'ilgan materiallar asosida Surxon vohasi oziq-ovqatlariga tegishli ma'lumotlar bayon qilingan[8].

XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, tojik xalqining taomlari va ichimliklarini A. Shishov o'rgangan bo'lsa[9], Buxoro amirligi aholisining turmush tarzini yoritgan N.A. Fridrix ularning ovqatlanish tartibi, aholining mehmondo'stligi, xususan, mahalliy aholi orasida palovning eng sevimli taom ekanligi va qandolatchilik mahsulotlari haqida ham ma'lumot bergan[10]. D.N. Logofet esa amirlik hududi, aholining urug'larga bo'linishi va Surxon vohasi hududida yashovchi o'zbek urug'larining ayrim taomlarini keltirib o'tgan[11].

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar, garchi professional mutaxassislar tomonidan bajarilmagan bo'lsada, ilk e'lon qilingan ilmiy ishlar ekanligi va shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilganligi bilan ahamiyatlidir.

XX asrning birinchi choragida maxsus tarixiy-etnografik tadqiqot olib borgan Ye.M. Peshereva Yag'nob, Qorategin, Hisor, Boljuvon kabi tog'lik tojiklarning sutli taomlari va ular bilan bog'liq urf-odatlarini yoritib bergan[12].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab etnografiya borasidagi ilmiy tadqiqotlar yanada boyib bordi. Vohada qadimdan o'zbeklar bilan birga tojiklar ham yashab kelganligi bois, ularning urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lgan. Tojik xalqi taomlarining Surxon vohasi tojiklari taomlariga xos umumiyliги va o'xshashligini shu davrda yoritilgan bir qator asarlarda ko'rish mumkin[13].

Markaziy Osiyoda qadimdan o'zbek xalqi

bilan yonma-yon yashab kelgan qoraqalpoq, turkman, qozoq va qirg'iz xalqlari an'anaviy taomlari haqidagi O'rta Osiyo va Qozog'iston etnografiyasiga bag'ishlangan asarlarda, bir qator risola va ilmiy maqolalarda ham ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

XX asr ikkinchi yarmi ilmiy adabiyoti xususida so'z yuritadigan bo'lsak, B.X. Karmishevaning Janubiy Tojikistondagi o'zbek-loqaylar etnografiyasiga bag'ishlangan asarida ham taom turlari va tayyorlash texnologiyasi borasida diqqatga sazovor mulohazalar bildirilgan[14]. N.A.

Kislya-kovning tojik oilasi va nikoh masalalari yoritilgan hamda Sayrob tojiklarining kundalik turmushiga bag'ishlangan tadqiqotlari moddiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan taom tayyorlash an'analari ham o'z ichiga oladi[15]. N.P. Lobacheva esa O'rta Osiyoning o'troq aholisi tomonidan Navro'z bayramining kutib olinishi va unda pishiriladigan taomlar haqida ma'lumot beradi[16]. Shuningdek, S.A. Tokarevning qadimgi turkiy xalqlarning e'tiqodlariga bag'ishlangan tadqiqoti ham diqqatga sazovordir[17].

O.A. Suxarevaning Buxoro tarixiga bag'ishlangan asarida voha hunarmandchiligi rivoji haqida fikr yuritilib, oziq-ovqat tayyorlash usullari va qandolatchilikka atroflicha to'xtalib o'tiladi[18].

Bundan tashqari, bu davrda O'zbekistonning boshqa hududlari taomlariga oid qator tadqiqotlar ham yaratilgan. Jumladan, K.L. Zadixina Amudaryo havzasi o'zbeklarining taomlari va ularning oshxona asbob-anjomlari haqida bayon qilgan bo'lsa[19], G.P. Snesev esa Xorazm o'zbeklari to'ylarida taomlar bilan bog'liq bo'lgan marosim va urf-odatlar haqida ma'lumot beradi[20]. Shuningdek, Toshkent viloyati misolida ham ayrim taomlar va oshxona asbob-anjomlari tavsiflab berilgan[21].

Akademik K. Shoniyozovning o'zbek etnografiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'zbek taomlari haqida birmuncha kengroq yoritilib, ayniqsa, o'zbek qarluqlarining taomlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin[22]. Bundan tashqari, voha aholisi an'anaviy taomlarining bir qator jihatlarini N.G. Borozna Bobotog' va Kofirnihon vodiysidagi o'zbeklarning moddiy madaniyati misolida ko'rsatib o'tgan[23].

**Xulosa.** Mazkur yuqorida keltirilgan adabiyotlarda mavzu muayyan darajada o'rganilgan bo'lib, o'sha davr nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda masalaga ma'lum bir xalqlar misolida yondashilganligini kuzatish mumkin.



Yuqorida nomlari qayd etilgan adabiyotlar asosan tavsiflovchi xarakterga ega bo'lib, ularda mualliflar ma'lum hududda yashovchi aholining taomlari va urf-odatlarini tasvirlab berish bilan cheklangan xolos.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. – Тошкент: Жайхун, 1996. – Б. 4.
2. Очилдиев Ф. XIX – XX аср бошларида жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт (Сурхон воҳаси мисолида).: Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 20.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 243.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви (Кейинчалик – ЎЗР МДА), 86-фонд, 1-рўйхат, 5565-йиғма жилд, 34-35-варақлар.
5. ЎЗР МДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 6377-йиғма жилд, 25-варақ.
6. Қаюмов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон-Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари // O'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2001. – № 4. – Б. 27-31.
7. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 279 с.; Небольсин П.И. Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом (со стороны Оренбургской линии). – СПб., 1856. – 370 с.
8. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – СПб., 1879. Вып. V. – 400 с.
9. Шишов А. Пища и напитки // Таджики. – Ташкент, 1910. – С. 118-127.
10. Фридрих Н.А. Бухара: Этнографический очерк. – СПб., 1910. – 79 с.
11. Логофет Д.И. Очерки Бухары. В забытой стране. – М.: Печатня А.И. Снегиревой, 1912. – 180 с.; Ўша муаллиф. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – С.Петербург: Издал В.Березовский, 1909. – 240 с.
12. Пещерева Е.М. Молочное хозяйство горных таджиков и некоторые связанные с ним обычаи. – Ташкент, 1927. – 20 с.; Ўша муаллиф. Ягнобские этнографические материалы. – Душанбе: Дониш, 1976. – 192 с.
13. Андреев М.С. Таджики долины Хуф (верховья Аму-Дарьи). – Сталинабад: АН ТаджССР, 1958. Вып. 11. – 524 с.; Ершов Н.Н., Кисляков Н.А., Пещерева Е.М., Русаякина С.П. Пища // Культура и быт таджикского колхозного крестьянства. – М. – Л., 1954. – С. 152-160; Ершов Н.Н., Хамиджанова М.А., Мухиддинов И. Пища // Таджики Каратегина и Дарваза. – Душанбе, 1970. Вып. 2. – С. 225-257; Хамиджанова М.А. Пища // Материальная культура таджиков верховьев Зеравшана. – Душанбе, 1973. – С. 138-181; Троицкая А.Л. Некоторые старинные обычаи и поверья таджиков долины верхнего Зеравшана // Занятия и быт народов Средней Азии. – Л., 1971. – С. 224-255; Мардонова А. Свадебные торжества у таджиков Файзабада // История и этнография народов Средней Азии. – Душанбе, 1981. – С. 106-122; Мухиддинов И. Обряды и обычаи припамирских народностей, связанные с циклом сельскохозяйственных работ // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. – М., 1986. – С. 70-93.
14. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. – Сталинабад: Изд. Акад. наук Таджикской ССР, 1954. – 169 с.; Ўша муаллиф. Традиционные формы бытового уклада в конце XIX – начале XX в. // Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М., 1969. – С. 114-193; Ўша муаллиф. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. – М., 1986. – С. 139-181.
15. Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков. По материалам конца XIX – нач. XX в. – М. – Л.: АН СССР, 1959. – 269 с.; Ўша муаллиф. Сайробские таджики // Советская этнография. Материалы и исследования по этнографии и антропологии СССР. – М., 1965. – № 3. – С. 17-27; Ўша муаллиф. Брачные обряды и церемонии // Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л., 1969. – 240 с.
16. Лобачева Н.П. Формирование новой обрядности узбеков. – М.: Наука, 1975. – 140 с.; Ўша муаллиф. К истории сложения института свадебной обрядности // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1978. – С. 144-175; Ўша муаллиф. К истории календарных обрядов у земледельцев Средней Азии // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. – М., 1986. – С. 6-30.
17. Токарев С.А. Ранние формы религии. – М., 1964. – 400 с.
18. Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара. – Ташкент, 1962. – 194 с.; Ўша муаллиф. Бухара XIX – начала XX в. (Позднефеодальный город и его население). – М.: Наука, 1966. – 328 с.